


ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР ВА УЛАРНИНГ ЕЧИМИ

мавзусидаги Республика миқёсидаги
хорижий олимлар иштирокида
онлайн илмий-амалий анжуман

ТЎПЛАМИ

Бухоро, 2020 йил 17-18 декабрь



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ
УНИВЕРСИТЕТИ**

**ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ЭКОЛОГИК
МУАММОЛАР ВА УЛАРНИНГ ЕЧИМИ**
мавзусидаги Республика миқёсидаги хорижий олимлар иштирокида
онлайн илмий-амалий анжуман

ТЎПЛАМИ

Бухоро, 2020 йил 17-18 декабрь

БУХОРО – 2020

qazilmalarni qazib olish jarayonida, jinslarda turli xil chuqurliklar hosil bo'ladi va ular tuproq qoplamo bilan aralashadi, ya'ni hududni birlamchi relyefining tuproq qoplami texnogen ta'sir holatiga keladi.

Shu jumladan o'rmon xo'jaliklarui ham ayni davrlarda birmuncha ziyon ko'rmoqda, shuning uchun O'rmon xo'jaliklarida kesish qoidalariga rioya qilish va boshqarishni to'g'ri yo'lga qo'yish va ayrim hududlarda qayta o'rmonlarni kesish 80-100 yildan keyin amalga oshirilishi zarur. O'rmonlardagi yong'inlarning kelib chiqishiga 97% holatda odamlar sababchi bo'ladi. Shuning uchun yong'inlarning oldini olish bo'yicha olib boriladigan tashviqot va tushuntirish ishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Tuproq degradatsiyasining kelib chiqishiga sabab bo'luvchi har bir omillar uchun amaliy chora tadbirlar ko'riladi. Tuproqning mexanik degradatsiyasini kelib chiqishiga shamol eroziyasi va deflyatsiya jarayonlari, chorva mollarini tartibsiz boqish, foydali qazilmalarni qazib olish, o'rmonlarni kesilishi, o'rmon yong'inlari kabi bir qancha omillar sabab bo'ladi. Shamol eroziyasi va deflyatsiya jarayonlarini oldini olish uchun ekin yerlari atrofida ixotalar barpo etish yuqori samara beradi. Sho'rtob va sho'rtobli tuproqlarni sho'rsizlantirish orqali qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarni ma'lum darajada kengaytirish mumkin. Shuning uchun ulardan foydalanish bu tuproqlar unumdorligini yaxshilash, dehqonchilikni rivojlantirishda katta ahamiyatga egadir. Yuqorida qayd qilinganidek, sho'rtoblar agronomik xossalarning yomon bo'lishiga asosiy sabab singdirilgan natriy kationi hisoblanadi. Shuning uchun sho'rtob tuproqlar unumdorligini oshirishdagi asosiy tadbir- singdirilgan natriyni gips yoki boshqa kalsiy tuzlari tarkibidagi kalsiy kationi bilan almashtirishdir.

Geoaxborot texnologiyalaridan yer monitoringida, degradatsiya jarayonlarini aniqlash va baholashda, distension zontlash ma'lumotlarini deshifrlash va landshaft uslubi yordamida ma'lumotlar bankini yaratishda, xaritalarni elektron versiyalarini tuzishda, turli darajada eroziyalangan hmada sho'rlangan tuproqlarning aniq tarqalish chegaralarini aniqlashda, relyefning shakllarini aniqroq o'rganishda, hududning ruvojlantirish tarixi va antropogon omil xususiyatlari qiyalik ekspozitsiyasi, tuproq hosil qiluvchi jinslarni inobatga olish, tuproq hosil bo'lish jarayonlarini to'g'ri anglash va landshaft – ekalogik sharoitlarini hisobga olgan holda degradatsiya jarayonlarini yuzga kelish sabablari bo'yicha umumlashtirilgan tavsif berishda foydalanish mumkin. GAT texnologiyasini qo'lgan holda, eroziyaga xavfli yerlarni aniqlash va baholash. An'anaviy (qog'oz) xaritalardan elektron (kompyuter) xaritalarga o'tish murakkab va juda ko'p mehnat talab qiladigan jarayondir. Bu maqsadga erishish uchun ish jarayonida kerakli miqdorda axborotlarga ishlov berishni, tahlil va ko'z bilan ko'rish imkoniyatini beruvchi GAT ArcView 9,10, Adobe Photoshop va 3D Fiel maxsus dasturlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tuproqlarning degradatsion jarayonlarini oldini olish uchun quydagilarga rioya qilish lozim deb o'ylayman:

Tuproqdan foydalanish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy tavsiyalarga qat'iy rioya qilish, mavjud suv resurslaridan samarali va tejamkorlik bilan foydalanish, ekinlarni oziqlantirishda organik o'g'itlardan foydalanish salmog'ini oshirish, tabiiy yaylovlardan qat'iy me'yor va reja asosida foydalanish, yer ostidan foydali qazilmalarni qazib olishda tuproq muhofazasiga qat'iy amal qilish lozim, qishloq xo'jalik texnikalarini tanlashda ularni tuproq yuzasiga ko'rsatadigan mexanik bosimiga e'tibor qaratish lozim. Tuproqlarga ishlov berish va tuproqdan foydalanish madaniyatini yanada yuqori darajada shakllantira olsak, degradatsiya jarayonlarini sezilarli holatda yaxshilashimiz mumkin.

AGROBIZNESDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR: MOHIYATI, AFZALLIKLARI VA TAQDIM ETADIGAN IMKONIYATLARI

N.N.To'rayeva, M.O.Yadgorova

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada iqtisodiyotda raqamli texnologiyalardan foydalanishning obyektiv zaruriyati yoritilgan. Agrar sohadagi biznes faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari hamda taqdim etadigan imkoniyat va afzalliklari ko'rsatilgan. Agrobiznesda raqamli texnologiyalardan foydalanishni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: biznes, agrar soha, agrobiznes, raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, innovatsiya, modernizatsiya, raqobatbardoshlik, samaradorlik.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi hamda iqtisodiy integratsiyaning tobora tezlashuvi natijasida iqtisodiyotda raqamli texnologiyalardan foydalanish ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bilimlarga asoslangan raqamli iqtisodiyotga o'tish industrial davrdan axborot-texnologik davrining ishlab chiqarish usuliga o'tish bilan bog'liqdir. Raqamli iqtisodiyotga o'tishning asosiy sababi – industrial iqtisodiyotning

barcha tarmoq va sohalarini qamrab olgan hamda uning miqyosi, dinamikasi va ichki mohiyatini batamom o'zgartirib yuborgan yangi raqamli axborot texnologiyalardir. Ilmiy tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, industrial iqtisodiyotning raqamli iqtisodiyot bilan almashinishi agrardan industrial iqtisodiyotga o'tishga aynan ekvivalent emas, chunki yangi paradigma doirasida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari ilm-fan sohalaridagi puxta bilimlar talab qiladigan kompyuter texnologiyalari, raqobatbardosh va o'zgaruvchan sharoitlarga tezda moslasha oladigan informatsion tarmoqlar sifatida aniqlanadilar. Zamonaviy raqamli iqtisodiyot tuzilmasining bunday sifat o'zgarishlari hozirgi kunda global o'zgarish tariqasida ko'rib, bunda "moddiy" iqtisodiyotdan "intellektual" iqtisodiyotga yoki "bilimlarga asoslangan iqtisodiyot" ga o'tish sifatida tushuniladi.


Raqamli iqtisodiyot - axborot, jumladan, shaxsiy axborotdan foydalanish hisobiga barcha qatnashchilarning ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish uning o'ziga xos xususiyati bo'lgani qisqartiruvchi [2].

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda" [1].

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri - bu bozor munosabatlariga asoslangan agrar ishlab chiqarishni rivojlantirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy negizini shakllantirish, mulkiy munosabatlarni takomillashtirish, faol tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirishdir.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi sohasida biznes faoliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Agrobiznes agrosanoat integratsiyasi natijasida vujudga kelgan agrosanoat majmuasining barcha bo'g'inlarini qamrab oladi. Agrobiznes faoliyatining maqsadi - iste'mol bozorini yetarli miqdorda sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlari, sanoatni esa xom ashyo bilan uzluksiz ta'minlash orqali foyda ko'rishdan iborat.

Qishloq xo'jaligi milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, aholini oziq-ovqat mahsulotlariga, sanoatni esa xom-ashyoga bo'lgan talabini qondiradi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi mamlakatimiz agrosanoat majmuasining yetakchi tarmog'i bo'lib, dehqonchilik, chorvachilik va meva-sabzavotchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Keyingi yillarda mamlakatimizning barcha hududlarida qishloq xo'jaligida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi oshmoqda, ya'ni qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar soni va ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi ortib bormoqda.



1-rasm. 2010-2018 yillarda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi, mlrd.so'mda

Yuqoridagi rasmdan ko'rish mumkinki, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi o'sib bormoqda. Dehqonchilik, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'sish tendensiyasiga ega.

Agrobiznes har qanday mamlakat iqtisodiy tizimining muhim elementidir. Chunki Aholining turmush darajasi bevosita qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning samaradorligiga bog'liq. Shu sababli qishloq xo'jaligi komplekslarining maksimal samaradorligiga erishish uchun yangi texnologiyalarni ishlab chiqish juda muhimdir.

Agrobiznes - bu faoliyat sohasi bo'lib, unda boshqa sohalar kabi innovatsiyalarni qo'llash juda jadal sur'atlar bilan amalga oshirilmaydi. Bu bir necha omillar, xususan, ko'plab innovatsion loyihalarning yuqori darajadagi talabga javobliligi va moliyaviy mablag'larning yetishmasligi bilan bog'liq.

Tarixda qishloq xo'jaligi ko'plab inqiloblarni boshidan o'tkazdi, ularning har biri samaradorlikni ta'minladi. Bozor prognozlarining keyingi o'n yillikda "raqamli qishloq xo'jaligi inqilobi" ni ko'rsatmoqda va bu orqali aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirishga hamda yuqori nafillikka ega tovarlar ishlab chiqarishni ta'minlashga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalar yaqin kelajakda qishloq xo'jaligining ajralmas qismiga aylanadi: ekinlarni rejalashtirish, sug'orishni avtomatlashtirish va hosilni raqamli modellashtirish va ozuqani hisoblash kabi jarayonlarda ko'rinadi. Muxtasar qilib aytganda, raqamlashtirish qishloq xo'jaligi zanjiridagi barcha aloqalarni o'zgartiradi.

Qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalardan quyidagi yo'nalishlarda foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- boshqaruv samaradorligini oshirish;
- resurstejamkor texnologiyalar, xususan aniq uyalab ekadigan seyalkalar, GPS uskunalari bilan jihozlangan qishloq xo'jaligi texnikalarini qo'llash;
- suv resurslari, o'g'itlardan samarali foydalanishni nazarda tutuvchi suvtejavchi sug'orish texnologiyalari;
- qishloq xo'jaligi hayvonlarini parvarishlash va sutni sog'ish bo'yicha robototexnikalar;
- qishloq xo'jaligiga yangi zamonaviy kasb egalari bo'lgan xodimlarni (mutaxassislarni) jalb etish;
- ma'lumotlar almashinuvining raqamli formatiga o'tish, hisobot turlarini qisqartirish bilan ishtirokchilarning o'zaro va davlat bilan hamkorligi samaradorligini oshirish va boshqalar.
- respublikaning qishloq xo'jaligi quyi tarmoqlari va hududlari kesimida umumfoydalanishga qaratilgan bilim va texnologiyalar bankini yaratish;
- raqobatbardosh, bozor va eksportga yo'naltirilgan qishloq xo'jaligini shakllantirish;
- oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va atrof-muhitni muhofaza qilishni kuchaytirish va boshqalar.

Mamlakatimizda "Aqlli qishloq xo'jaligi" texnologiyalarini joriy etish Konsepsiyasida qishloq xo'jaligini raqamlashtirishda mehnat unumdorligini oshirish uchun raqamli qishloq xo'jaligiga o'tish va raqamli texnologiyalardan faol va keng foydalanish; sohada global rejalashtirishni va bozor ishtirokchilariga aniq tavsiyalar taqdim etishni ta'minlash, shu jumladan sun'iy intellektni qo'llash uchun qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilar va davlat ma'lumotlari oqimini "Aqlli qishloq xo'jaligi" platformasiga integratsiyalash; qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarning davlat, bank va sug'urta ma'lumotlariga kirishlarining ochiqligini ta'minlaydigan "Aqlli qishloq xo'jaligi" platformasi funksiyalarini integratsiyalash; qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etishni qo'llab-quvvatlashning mexanizmlarini va chora-tadbirlarini shakllantirish; turli xil raqamli ochiq platformalarga kirishni ta'minlaydigan mahalliy ishlanmalarni rag'batlantirish (raqamli maydon, raqamli poda, texnika, issiqxonalar boshqarish va boshqalar) kabi boshqa vazifalar belgilangan.

Sohada raqamli texnologiyalardan foydalanish qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirib, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, mehnat unumdorligi oshadi, tarmoqda innovatsion faoliyat rivojlanib, zamonaviy innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyotning asosiy natijasi - mavjud biznes modellarini o'zgartirish, mahsulotni yaratish, uni sotishda va xizmatlar ko'rsatishda vositachilarning rolini kamaytirishdir. Mazkur natijalar esa biznes yuritish muvaffaqiyatini ta'minlab, zamonaviy hamda yuqori nafillikka ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
<https://president.uz/uz/lists/view/3324>

Б.И.Ниязалиев, Б.Х.Тиллабеков, Б.А. Тиллабеков, Х.Хайитбоев, Ф.Х.Жумаев. Маҳаллий хом ашёдан тайёрланган таркибида микроэлементи бўлган гранулали ва суюқ азот ўғити қўлланилганда тупроқ таркибида мис, рух ва молибден микроэлементларни тўпланишига таъсири.	175
М.Рузметов, Х.Намазов, Ю.Корахонова, Г.Абдалова, А.Корахонов. Земельных ресурсов субтропической зоны Узбекистана.	177
Рахмонов И., Гозиев У. Сирдарё вилоятида ерларнинг мелиоратив ҳолати назорати натижалари ва унинг аҳамияти.	180
Б.Р.Рамазонов, А.Ж.Исмонов, Ш.Т.Турсунов, Г.Х. Турсунова. Аллювиал ётқиқликларда ривожланган Амударё ёйилмасидаги сугориладиган тупроқларнинг ҳозирги ҳолати.	182
Х.К.Намозов, О.С.Амонов. Бухоро воҳаси сугориладиган тупроқларининг ҳозирги мелиоратив ҳолатини тавсифи	184
Н.Халмухамедова, Б.Буриев. Жиззах вилояти Ш.Рашидов тумани Ш.Рашидов массиви лалми ер майдонларининг тупроқ харитасини тузиш ва сифатини баҳолаш	191
Х.Намазов, М.Рузметов, Ю.Корахонова. A brief characteristics of soil layer in Mirzachul region.	193
Х.Намозов, О.Жўраев, У.Қурбонқулова. Тошкент вилояти сугориладиган типик бўз тупроқларида ресурстежамкор технология қўллаб тупроқ унумдорлигини яхшилаш	198
Б.Р.Рамазонов Проблемы Аральского моря	204
Х.К.Намозов, О.С.Амонов. Мелиорация засоленных земель бассейна Амударьи	210
Ҳ.Т.Артикова, М.М. Сатторова. Қумли чўл тупроқларининг генезиси, эволюцияси ва улардан фойдаланиш	214
R.Yunusov, N.M. To'rayeva, O'.Shamsiyeva. Kogon tuman tuproqlarining unumdorligini oshirish va muhofaza qilish omillari.	216

III ШҶЪБА.

ТУПРОҚ ЭКОЛОГИЯСИ, БИОЛОГИЯСИ ВА ТУПРОҚЛАРНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ, ТУПРОҚШУНОСЛИК АМАЛИЁТИДАГИ РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР

М.М.Даулетмуратов, Л.А.Гафурова., М.Э.Саидова. Тупроқ унумдорлигини мониторинг қилишда Landsat мультиспектрал сунъий йўлдошларидан фойдаланиш.	218
Т.Қ.Ортиқов, Ҳ.Т.Артикова, О.Р.Умаров. Турли даражада шўрланган ўтлоқ аллювиал тупроқлар сингдириш комплекси ва уни шаклланиш жиҳатлари.	221
Б.Б.Аслонов. Обоснование необходимости экологизации промышленного производства.	222
О.Х. Эргашева. Туркистон тоғ тизмаси эрозияга учраган тупроқларининг педофауна миқдори ва индикатор мезонлари.	224
Л.А.Гафурова, М.М.Мазиров, М.К. Жулиев, Г.Т.Джалилова. О влиянии изменения климата на деградацию земель в Узбекистане.	227
Р.Курвантаев С.М.Назарова, М.Р.Хуррамова Гранулометрический состав орошаемые почв Бухарской области	230
J.J.Jumayev Tuproq unumdorligi muammolarining kelib chiqish sabablari va uning oldini olish chora - tadbirlari	234
Н.Н.Тўраева, М.Я.Ядгорова. Агробизнесда рақамли технологиялар: моҳияти, афзалликлари ва тақдим этадиган имкониятлари.	235
Ш.Адилов, С.Бобожонов, Қ.Мухаммадов. Ердан оқилона фойдаланиш чора- тадбирлари.	238
Н.М.Бахриддинова, И.Жўрақулов. Озон қобигининг емирилиш сабаблари ва уни асраш йўллари.	239
Н.Н.Турсунова. Химические проблемы экологии в пищевой промышленности.	240
А.Тешабоев. Принципы безотходных технологий и экологическая характеристика производств.	242